



**Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari
kuzatuvlari bo‘limi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Xorazm viloyati Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘limining (keyingi o‘rinlarda bo‘lim deb ataladi) bo‘limni asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Xorazm viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – boshqarma)ning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risidagi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari masalalari bo‘yicha faoliyatini Viloyat statistika boshqarmasining tarmoq hamda shahar va tuman statistika boshqarmalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalgalashiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini viloyat satistikasi boshqarmasi boshlig‘I raxbarligida amalga oshiradi.

Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) *rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo‘yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:*

Statistika dasturini, Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bilan bog‘liq ishlarning reja-jadvali, boshqarmaning ish rejalarini ishlab chiqishda ishtirop etish;

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tizimini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta‘minlash yuzasidan joriy va istiqbol rejalarini tayyorlash ishlarida ishtirop etish;

statistika organlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tahlil qilish va ishlab chiqish, takliflarni amalda ro‘yobga chiqarishda ishtirop etish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni (aholi turmush darajasi taalluqli rasmiy statistikasiga aloqador qismi bo‘yicha) tayyorlashda ishtirop etish;

makroiqtisodiy va hududiy darajalarda o‘rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan statistika ma‘lumotlarini yig‘ish va qayta ishlashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo‘li bilan statistik kuzatuvlar tizimini umum qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirishni vakolati doirasida amalga oshirish;

jamiyat ehtiyojlariga muvofiq Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari sohasidagi ko‘rsatkichlarni hisoblash metodikalarini doimiy ravishda takomillashtirish;

b) *foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb*

statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari qismi bo'yicha so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash;

aholi turmush darajasi statistikasi bo'yicha mamlakatdagi eng muhim ijtimoiy hodisa va jarayonlarning dastlabki statistik tahlillarini olib borish;

aholi turmush darajasi statistikasi bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash;

ishonchli statistika ma'lumotlarini taqdim etishda uy xo'jaliklari respondentlariga har tomonlama ko'maklashish, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirishda ishtirok etish, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'yicha olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligi, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlash;

umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq, statistik metama'lumotlar tizimini yaratish va rivojlantirish ishlarida ishtirok etish;

tavsiya etilgan xalqaro standartlar asosida statistikada sifatni boshqarish tizimini joriy etish va rivojlantirish;

d) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:

milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun statistik axborotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkoraligni, respublikada aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi bo'yicha ko'rsatkichlari va materiallarini xalqaro statistik to'plamlarda chop etishni qo'shgan holda, xalqaro statistik tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida tahliliy va ma'lumotnomaga materiallar majburiy tartibda ilova qilinishini ta'minlash;

aholi turmush darajasiga tegishli qismi bo'yicha respublika iqtisodiyotining rivojlanish holati, iqtisodiyotni rivojlantirish va isloq qilish bo'yicha O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishi holati to‘g‘risidagi yillik va choraklik statistik va tahliliy materiallarni tayyorlash va belgilangan tartibda taqdim etish;

aholi turmush darajasi statistikasi bo‘yicha ochiq statistik ma‘lumotlarni statistika organlari, boshqa davlat organlari, xalqaro tashkilotlar nashrlarida joylashtirish yo‘li bilan tarqatish va barcha foydalanuvchilarga statistik ma‘lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash;

xorijiy statistika organlari bilan aholi turmush darajasi statistikasi bo‘yicha ochiq statistik axborotlarni almashish, respublikaning rivojlanishi to‘g‘risida materiallarni xalqaro statistik to‘plamlarda chop etish uchun axborotlarni tayyorlash va taqdim etishni ta‘minlash;

e) statistika ma‘lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o‘z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash sohasida:

raqamli texnologiyalardan foydalangan holda aholi turmush darajasiga oid statistik axborotlarni qayta ishslash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish, shuningdek, elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy qilish hamda ularni takomillashtirish;

internet-resurslarga joylashtirish yo‘li bilan hamda so‘rovlari bo‘yicha aholi turmush darjasiga oid ko‘rsatkichlar to‘g‘risidagi axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha Statistika agentligining ma‘lumotlari asosida ommaviy axborot vositalarida tahliliy lavhalar, diagrammalar va grafiklarni keng namoyish qilish, statistik nashrlarga ko‘rsatkichlarni vizuallashtirishning ilg‘or usullarini joriy etish yo‘li bilan alohida statistik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida aholini xabardor qilish bo‘yicha choralarni ko‘rish;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika axborotlari masalalari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

7. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o‘rganish natijalarini hisobga olgan holda rasmiy statistika sohasi rivojlanishining istiqbolli maqsadlari va yo‘nalishlarini belgilaydi;

milliy statistika tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg‘or uslubiyotlari va tavsiyalarini joriy etish yuzasidan zarur choralarini amalga oshiradi;

rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda amalga oshirishda va statistika dasturlari doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

rasmiy statistika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda xalqaro tavsiyalar asosida normativ-huquqiy hujjalarni, shu jumladan, statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash uslubiyotlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, joriy etish va takomillashtirib borish;

turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari savolnomalarini qayta ishlash va tasdiqlatish, har xil turdagи kuzatuvlarni birlashtirish yo‘li bilan optimallashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

statistik instrumentariyni ishlab chiqish va takomillashtirish hamda sifatni boshqarish tizimini joriy etish jarayonida Statistika agentligi bo‘linmalari bilan hamkorlik qilish;

Statistika dasturi hamda statistika dasturida aholi turmush darajasi statistikasi bo‘yicha belgilangan ishlarning to‘liq va muddatlarida bajarilishini ta‘minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi statistika tizimini rivojlantirish dasturlarini, rasmiy statistika faoliyatining joriy va istiqbol rejalarini, boshqarmaning metodologik ishlari rejalarining amalga oshirilishida Bo‘lim vakolati doirasida ishtirok etish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari oid statistika metodologiyalarini xalqaro standartlar va rasmiy statistika prinsiplariga, jamiyat ehtiyojlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Rasmiy statistika to‘g‘risidagi qonuni va hujjalariiga mos kelishini ta‘minlaydi;

statistika organlari tomonidan turmush darajasi statistikasiga oid rasmiy statistika ma‘lumotlarini taqdim etish tartibiga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘rnatish, zarurat tug‘ilganda joylarga chiqqan holda ijro intizomini o‘rganadi;

Boshqarmaning tarmoq bo‘limlarining turmush darajasi statistikasiva uy xo‘jaliklari kuzatuvlariga oid axborotlarni shakllantirish bo‘yicha ishlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi;

Bo‘limga taalluqli bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko‘rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo‘yicha, zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida, takliflar tayyorlaydi;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘adi, qayta ishlaydi, to‘playdi, saqlaydi, umumlashtiradi, tahlil qiladi va e‘lon qiladi;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning ishonchlilagini, xolisligini va komplekslilagini ta‘minlaydi;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni, xalqaro tashkilotlarni va aholini statistika axborotlari bilan belgilangan tartibda ta‘minlaydi;

Bo‘lim belgilangan tartibda o‘ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi

8. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) belgilangan tartibda statistika hisobotini olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

Boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo‘limlaridan o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma‘lumotlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

Boshqarma rahbariyatiga Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

rasmiy statistika sohasida me‘yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirishda, statistik kuzatuvlar metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqishda ishtirok etish;

statistika dasturiga asosan statistika ishlarini o‘z muddatlarida bajarilishini ta‘minlash;

Bo‘limning vakolatiga kira digan masalalar bo‘yicha boshqarmaning bo‘limlari bilan yo‘riq nomda berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha kuzatuv shakllarining to‘liqligini ta‘minlash, yig‘ish va qayta ishlash muddatlarini qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Bo‘lim faoliyatiga tegishli masalalar bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar va yig‘ilishlar, shu jumladan xalqaro yig‘ilishlar ishida, shuningdek, xalqaro loyihalarda ishtiroy etish.

9. Bo‘lim quyidagilar uchun javob beradi:

- o‘ziga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada va samarali bajarish;
- vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;
- statistikasi tamoyillariga amal qilish, ilg‘or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalaniyotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo‘lim xodimlari tomonidan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta‘minlash.

4-bob. Bo‘limning tuzilmasi

10. Bo‘lim tarkibiga bo‘lim boshlig‘i, bosh va yetakchi mutaxassis va mutaxassislar (intervyuerlar) kiradi.

11. Bo‘lim ishiga bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

12. Bo‘lim boshlig‘i, bosh va yetakchi mutaxassis va mutaxassislar (intervyuerlar) Boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘limi ko‘rsatkichlarini shakllantirish va tahlil etish bo‘yicha quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Statistika dasturida belgilangan tartibda va muddatlarda Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari ko‘rsatkichlari va hududlar rivojlanishining sabablari va omillarini yoritib beruvchi zamonaviy statistik tahlil usullaridan foydalangan holda yillik va choraklik axborotlarni, hisobotlarni tayyorlash, chop etish va foydalanuvchilarga yetkazish;

uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlari hamda aholi farovonligi darajasini hisoblashning metodologik va matematik qo‘llab-quvvatlash, tanlov sifati monitoringini amalga oshirish, xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda tavsiya etilayotgan yangi usullarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

iqtisodiyot tarmoqlari, Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari va hududlarni rivojlanтирish uchun qabul qilingan Statistika dasturi bajarilishi bo'yicha taqdim etiladigan tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash;

boshqarmaning tegishli bo'linmalari bilan birgalikda turmush darajasining dolzarb masalalari bo'yicha ommaviy axborot vositalarida press-relizlar va maqolalar tayyorlash, hisobot davri uchun respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi tahliliy ma'lumotlar tayyorlash;

viloyat hamda hududlar bo'yicha aholi turmush darajasida yuz berayotgan o'zgarishlar va jamiyat tomonidan ko'proq talab qilinayotgan statistik ma'lumotlarni boshqarmaning rasmiy veb saytida joylashtirib borish, ular bo'yicha diagramma va grafiklar tayyorlash amaliyotini kengaytirish;

statistik ma'lumotlarni chop etishda ko'rsatkichlarni namoyish qilishning ilg'or tajribalarini (toifalashtirilgan grafiklar, ma'lumotlar qamrovini kengaytirish, infografika va boshqalar) tadbiq etish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'yicha jamlanma tahliliy jadvallar, ma'ruzalar, hisobotlar va statistik to'plamlar, xalqaro savolnomalar uchun ma'lumotlar tayyorlash;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish hamda qabul qilingan uslubiy hujjatlarni amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash.

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari faoliyati uslubiyatlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlariga oid ko'rsatkichlarni sifatini yanada oshirish maqsadi statistik tahlil usullaridan foydalanish bo'yicha hududiy boshqarmalar xodimlari va mutaxassislari malakasini oshirishda amaliy yordam ko'rsatish, joylarda seminarlar tashkil etish.

14. Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari bo'limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari hamda aholi farovonligi darajasini hisoblashning tavsiya etilayotgan yangi usullari bo'yicha statistik instrumentariyni (kuzatuv shakllari va jamlanma tahliliy jadvallar maketlari, ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyatlari, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha vazifalar) shakllantirish;

Statistika dasturida belgilangan tartibda va muddatlarda uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuvlarni tashkillashtirish, uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlar natijalari bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari axborotlarini shakllantirish masalalari bo'yicha hududiy organlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

hududiy statistika organlari tomonidan, uy xo‘jaliklari kuzatuviga oid statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasi asosida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish;

aholi daromadlari va uy xo‘jaliklari kuzatuvlariga oid axborotlarni elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etish, bu yo‘nalishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, aholi daromadlari va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari asosiy ko‘rsatkichlarining takomillashtirilgan ma‘lumotlar bazasini yuritish;

axborot-tushuntirish ishlarini o‘tkazgan holda respondentlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

5-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish

15. Bo‘lim faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi, Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi to‘g‘risidagi nizom, mazkur nizom, shuningdek viloyati statistika boshqarmasi ish rejalar, bo‘limning ish rejalar va bo‘lim xodimlarining funksinal vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo‘limning ish rejasi viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan viloyati statistika boshqarmasi ish rejalar asosida shakllantiriladi va boshqarma boshlig‘ining o‘ribbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Bo‘lim xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari tegishli bo‘limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda, Bo‘lim boshlig‘i tomonidan tayyorlanadi va boshqarma boshlig‘ining o‘ribbosari tomonidan tasdiqlanadi.

15. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bosh va yetakchi mutaxassislari va mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, Bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

tarkibiy bo‘linma to‘g‘risidagi nizomlarga muvofiq aniq yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlaydi;

Bo‘limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish,

ularni rag‘batlantirish va jazolash choralari bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va nazorat qiluvchi boshqarma boshlig‘ining o‘rnbosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Boshqarmaning yig‘ilishlari va majlislarida, shuningdek, boshqarma rahbariyatining topshirig‘iga binoan Bo‘lim yuritadigan sohaga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida qatnashadi;

Statistikasi sohasida normativ va metodologik hujjatlarni va statistika kuzatuvlari shakllari loyihamonini ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Boshqarma boshlig‘i va uning o‘rnbosarlarining topshiriqlariga binoan tahliliy va umumlashtiruvchi materiallar tayyorlaydi, qo‘yilgan vazifalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha boshqarmaning tarmoq bo‘lim boshliqlari va mutaxassislariga maslahat va metodologik yordam beradi;

Boshqarmaning va bo‘limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq, bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida tizimli asosda tayyorlanishini ta‘minlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlar, rejalar va dasturlar loyihamonini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda, shuningdek, ularning statistikasiga tegishli qismini ijro etishda ishtiroy etadi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;

Bo‘lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;

Bo‘lim xodimlari bilan oldiga qo‘yilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

ish yurishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etilishini qat‘iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishslash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta‘minlaydi.

Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘lmagan taqdirda uning vazifasini bosh mutaxassis bajaradi.

16. Bo‘lim bosh mutaxassis:

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjat loyihamining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javobgar;

tegishli funksional masalalar bo‘yicha statistik instrumentariyning (hujjatlar, kuzatuv shakllari, tasniflagichlar, metama‘lumotlar va h.k.) tizimlashtirilgan elektron ma‘lumotlar bazasi yuritilishini, ularning doimiy ravishda to‘ldirilishini va yangilanishini ta‘minlaydi;

Bo‘limning tegishli bo‘limi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha markaziy apparatning bo‘linmalariga va hududiy statistika organlariga konsultativ yordam ko‘rsatadi;

bo‘lim boshlig‘ining topshirig‘iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko‘rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish loyihasini tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

17. Bo‘lim yetakchi mutaxassis:

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjat loyihamining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javobgar;

tegishli funksional masalalar bo‘yicha statistik instrumentariyning (hujjatlar, kuzatuv shakllari, tasniflagichlar, metama‘lumotlar va h.k.) tizimlashtirilgan elektron ma‘lumotlar bazasining yuritilishini, ularning doimiy ravishda to‘ldirilishini va yangilanishini ta‘minlaydi;

bo‘lim boshlig‘ining topshirig‘iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko‘rib chiqish uchun zarur materiallar va ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtiroy etadi;

Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha mutaxassislarga konsultativ yordam ko‘rsatadi;

ish yuritishni olib boradi, bo‘limdada hujjatlarning o‘tish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o‘z vaqtida topshirishni ta‘minlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

18. Bo‘lim mutaxassislari (intervyurlar):

belgilangan tartibda uy xo‘jaliklarida so‘rov o‘tkazish (biriktirilgan mahallalarda), uy xo‘jaliklari kuzatuvi o‘tkazish bo‘yicha tasdiqlangan yo‘riqnomaga asosan kuzatuv ishlarini olib borish;

uy xo‘jaligi kuzatuvi ma’lumotlarini tahlil qilish (biriktirilgan mahallalar bo‘yicha);

uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvi bo‘yicha ma’lumotlarni faqat elektron qurilma planshetlardan foydalangan xolda o‘tkazash, tahlil qilish, asosiy serverga o‘z vaqtida yuborish;

uy xo‘jaligi kuzatuvi yakuni bo‘yicha bo‘limga olib kelinadigan hujjatlarni barchasini to‘liq bo‘limga topshirish (biriktirilgan mahallalar bo‘yicha);

so‘rov o‘tqazilmagan uy xo‘jaliklarini (rad etganlik blanki)ni planshet orqali savolnomaga o‘tkazishni rad etgan uy xo‘jaligidan turib asosiy serverga yuborish;

bir yilda bir marta tanlovga tushgan mahallalarda uy xo‘jaliklari ro‘yxatini shakllantirish va kompyuterga kiritish (biriktirilgan maxallalar bo‘yicha);

har oyda tanlanma kuzatuvga tushgan uy xo‘jaligi a’zosi bilan shartnoma tuzish va shartnoma bo‘yicha uy xo‘jaligi a’zosining pasport, SHJBPH to‘g‘risida ma’lumotlarni olish;

bir yilda bir marta transport harajati uchun asoslovchi hujjatlarni olish;

mehnat intizomiga rioxqa qilish, xar oyda tasdiqlangan reja grafikka asosan ish faoliyatini amalga oshirish;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Bo‘lim boshlig‘i

L.Djabbarova

Bo‘lim bosh mutaxassisasi

N.Abdullayeva

Bo‘lim yetakchi mutaxassisasi

D.Tajimova

Bo‘lim mutaxassislari

N. Ruzmetova

Y. Palanova

Sh. Xudayberganov

A. Qurbanov

X. Saparbayev

Bosh yuriskonsult

I.Otajanov